

## FANLAR INTERRATSIYALASHUVIDA TA'LIMIY TOPSHIRIQLARNING O'ZIGA XOS O'RNI

G`oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

Namangan VXTXQTMOHM, Maktabgacha, boshlang`ich va maxsus ta'lismetodikalari kafedrasi katta o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7125965>

*Annotatsiya. Mazkur maqola boshlang`ich ta'lism ona tili va matematika darslarida turli topshiriqlarni bajarish orqali fanlardagi mavzularni mustahkamlash asosida o`zaro uygunlashtirish haqida yozilgan.*

*Kalit so`zlar: didaktika, ta'limi topshiriq, so`z, gap, raqam, son, geometrk shakllar, metodika, savollar, xona birliklari*

### КОНКРЕТНАЯ РОЛЬ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОСТИ

*Аннотация. Данная статья написана о гармонизации начального образования на основе закрепления предметов на уроках родного языка и математики путем выполнения различных заданий.*

*Ключевые слова: дидактика, образовательное задание, слово, предложение, число, число, геометрические фигуры, методика, вопросы, единицы измерения*

### SPECIFIC ROLE OF EDUCATIONAL TASKS IN THE INTERRATION OF SCIENCES

*Abstract. This article is written about mutual adaptation on the basis of strengthening subjects in primary education by performing various assignments in the lessons of native language and mathematics.*

*Keywords: didactics, educational assignment, word, sentence, number, number, geometrical shapes, methodology, questions, room units.*

### KIRISH

Uzluksiz ta'lism tizimini modernizatsiyalash O`zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Boshlang`ich ta'lism jarayonini samarali tashkil etish, o`quvchilarning bilish faolligini oshirish bevosita tizimda bo`layotgan o`zgarishlar bilan bo`qliq.

Xalq ta'limi tizimiga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ham maktablarda faoliyat olib borayotgan barcha o`qituvchilarni ham o`z ustida ishlash ko`nikmasini oshirib borishini talab etadi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Bugungi kunda boshlaning`ich sinflardagi integratsiyalashgan darslar ta'limga birinchi qadamlaridan boshlab bolaga borliqni bir butun holatda tasavvur qilishni, undagi hamma narsa o`zaro bog`langanligini tushunishga qaratilgan.

Ona tili va matematika fanlarini bo`glab o`rgatish texnologiyalarini takomillashtirish integratsiyalashga qaratilgan texnologiyalarini takomillashtirish bugungi davr talabiga mos keladi.

Bular yanada kengayib turli fanlarning mah`umotlarini o`z ichiga olgan tarmoqlarni o`z ichiga olgan holda soni ortib boradi. Bu esa fanlar integratsiyalashib o`rganilishini ta'minlaydi

Boshlangich ta'limga integratsiya borliqdagi turli xil lokal, ajralib qolgan, bog`lanishsiz ko`rinishdagi hodisalarini o`o`aro bog`langan kompleks holatda o`rganish imkonini beradi. Integratsiyalashgan ta'limga tashkil qilishda boshlang`ich sinf o`quvchilarining yoshini fani bilan

birlashtirish shaxsning psixoloigik, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini hsobga olgan dunyoning rang-barangligini ko`rsatish va bunda ona tili fanini matematika o`stiradi kreativligini hamda kognitivligini oshishiga ta'sir qiladi.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida xalqaro tadqiqotlarning joriy etilayotganligi boshlang`ich tahlimidagi integratsion jarayonlar o`zining ko`rinishiga qarab yetarli darajada murakkab va serqirra sabab pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishni talab qiladi.

Ma'lumki, xalqaro dasturlarva tadqiqotlarda ham fanlar intergatsion tarzda o`rganishni nazarda tutiladi.

Pedagogik integratsiya -ta'lim tizimi doirasida o`quvchini o`z-o`zini rivojlantirishga yo`naltirilgan mazmunning bir turdag'i qismlari va elementlari, shakli va uslubini mutanosib ravishda birlashtirgan aloqadir. O`quvchilarni o`zini o`zi rivojlantirishga eltuvchi ta'lim doirasidagi o`qitishning bir turdag'i qismlari va tarkibiy elementlari, shakli va uslublararo maqsadga mos tuzilmaviy-tashkiliy aloqadir.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ona tili va o`qish savodxonligi hamda matematika fanlari bo`yicha topshiriqlar berilgan. Boshlang`ich ta'lim davridan boshlb o`quvchilarni tadqiqotlarga tayyorlab borishda integratsion ta'limiy topshiriqlar bilan ishlash alohida o`ringa ega desak bol`adi.

Boshlang`ich sinflardagi integratsiyalashgan darslar bolani ta'limning ilk bosqichidayoq barcha elementlari o`zaro bog`liq bo`lgan dunyoni yaxlit bir holatda tasavvur qilishga o`rgatadi. Shunday qilib, boshlang`ich maktabda integratsiyalashgan darslarni bir – biriga yaqin bo`lgan bilimlar toifasini birlashtirib o`qitishni taqoza etadi.

O`quv jarayonlar fanlar integratsiyasini uch xil ko`rinishda mavzulararo, fanlararo, tushunchalararo integratsiya bo`lishini nazarda tutsak ona tili va matematika fanlarini bog`lab o`rgatish orqali integratsiyalashgan texnologiyalarini takomillashtirish oid amaliy topshiriqlar asosida o`rgatish yo`llari xususida fikrlar jamlangan.

Bunda “Ona tili” fani bilan “Matematika” fani o`rtasidagi mavzu va tushunchalarni integratsiyalash texnologiyalarini takomillashtirilgan variantlarini kiritilishini ko`zda tutgan holda yondashihni talab etadi.

Bunda dastur bo`yicha yillik rejallarda berilgan ona tili faniga va matematika faniga (arifmetika, algebra va geometriyaga doir mavzular va tushunchalar) oid o`rganiladigan mavzular hamda qo`llaniladigan tushunchalarni uyg`unlashtirib o`rganish natijasida kundalik hayotda va amaliy jarayonlarda ongli, anglash doirasi kengayadi.

Masalan, ona tili darsida tilga amaliy qo`llash bilan bir qatorda boshqa fanlarga doir tushunchalar kiritilgan. Matematika esa matematika savodxonligini oshirish bilan bir qatorda so`zlashuvga xos so`zlarni va tushunchalar ham o`rganib boriladi.

Integratsiyalashgan darslarni tashkil qilishda boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili va matematika sohalardagi bilimlarini mujassam shaklga solib, bu fanlarning ham ta'limiy ham hayotiy uyg`un jihatlarini ko`rsata olishga imkon beradi.

Hayotiy ko`hikmalar kategoriyasi keng ma'noga ega, chunki hayotingizda foydali bo`lgan har qanday mahorat hayot qobiliyati deb hisoblanishi mumkin. Kerakli hayotiy ko`nikmalar madaniyatga va insonning yoshiga bog`liq. Bilamizki, har bir sinf o`quvchiarining o`ziga xos anglash qobiliyati bor.

Demak, fanlardagi mavzularni integratsiyalash o`quvchi shaxsining ijodiy fikr yurita

olish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tasavvurlarini bo`yitadi. Har bir o`rganilgan bilimlarni o`ziga xos jihatlarni ko`ra olishiga zamin ko`mak beradi. Ijod qilishga, qaror qabul qilishga o`rgatadi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Matematika: Topshiriq: Asalarilar chelagidagi raqam va sonlardan nimani anglatadi? Fikr yuritingchi! Nnimalarni bilib oldingiz?

Javob: Asalarilar asal yig`adi? Ular chelagidagi raqam va sonlar asalni miqdorini bildiradi. Demak bu rasmdagi birinchi asalari 8 kg, ikkinchi asalari esa 36 kg, uchunchi asalari 81 kg, to`rtinchi asalari 6 kg asal yig`ganini bildiradi.

Asal kg va litrlarda o`lchanishini ham bilib oldik



Ona tili savodxonligi boyicha:

1. Arilar nima qilyapti ?
2. Asalarilar haqida nima bilasiz?

Mulohaza uchun: Arining chelagida asal bor. To`grimi?

J: Ha asal bor

Nega? Chunki asalari gullardan asal yig`adi

Rasmlli topshiriq:



Uychada qanday shakllar ko`ryapsiz? Tasavvur qiling. Deraza oynalari nechta? Mulohaza yuriting.

J: Uchburchak, to`rburchaklar bor. Uchburchak va tortburchak. Ular shakllarning nomi. Derazalar 7 ta va yetti derazalar sonini bildiradi. Demak xonalar k`op ekan. Qarama -qarshi tomonda ham deraza bor bo`lsa Jami 14 bo`lishi mumkin.

Ona tili savodxonlik bo`yicha

Do`stim Salmjon uy qurishdi. Uy quyoshga qaragan. U ikki qavatli. Uyda bolalar xonasasi va darsxona bor. Yana boshqa xonalar ham koo`p. Uyda qishda ham yashash mumkin.



Ushbu rasmdagi chavandozga ism va otga nom qo`ying. Qisqa hikoya tuzing.

Ona tili: Dilshod Cavandoz U Saman laqabli oti bilaan birga musobaqlarda qatnashadi. Ot juda chopqir va chaqqon. U Dilshodning do`sti.

Chavandoz so`zining bo`ginlaridan ochiq bog`inli so`zlar yasang?

Cha-van-doz - chana, chaman, charos

## MUHOKAMA

Matematika: Chavandoz kunning birinchi yarmida maydonda mashq qiladi. Uning mashqlari davomiyligi 12 soatning teng ikki qismining yarmiga tog`ri keladi. Qolgan bir qismida sayr qiladi . Ular necha soat sayr qiladi.

*O`quvchilarga she`r beriladi*

**Qo`sish quyular bolajon,**

**Kulib boqar lolajon.** Bolalar, ushbu misralarni tahlil qiling.

Bolalar: Bola chirioyli qo`sish aytsa lola guli ham kulib atrofga boqqanday yoqimli bo`lishi haqida so`z boradi.

Quyida turgan olmani Barno singlisiga yarmini berdi, singlisi Salima esa uni ikkidan bir qismini oldi. Ular olmani necha qismini bo`lihgan?



Ona tili: Quyosh rasmiga diqqat bilan kuzating. Uni ta'riflab bering. Bu rasm nimasi sizga yoqdi? Nega? O`z fikringizni yozib bering.



Matematikaga bog`lash: Rasmda matematikaga xos nimalarni ko`ryapsiz? Ularni yozing.

## XULOSA

O`zaro aloqadorlik-mohiyatiga ko`ra ikki o`quv predmetlari orasidagi aloqadorliklarni ya`ni birinchi o`quv predmeti bo`yicha o`zlashtirilgan bilim va ish harakat usullarini ikkinchisida qo`llashi va aksincha qo`llanilishini ifodalaydi. Integrativ aloqadorlik-esa nisbatan yuqori darajali aloqadorlik bo`lib, avval zikr etilganlaridan o`quv dasturiga maqsadga muvofiq kiritilganligi bilan farq qiladi va albatta uni ta'minlashni talab etadi. Natijada ob`yekt haqida tizimli mukammal bilim ish harakat usullari shakllanishiga imkon yaratadi.

## REFERENCES

1. Matchonov S ."Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asasida tashkil etish" –T. 2008. 29-40 b
2. Tolipov O', M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari- T. 2006. 230 b
3. Sobirov B, Sultonmurodov D "Pedagoglarni pdagogik kompetentligini oshirishga talablar" Zamonaliv ta'lim 2015- yil 7- son. 60-61-bet